

Hayotjon Boyboboyev

Fargʻona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya

Maqolada internet nashrlarida matn tahriri jarayoni, matnlarni qayta ishlash uchun zarur amallar, internet nashrlarining oʻziga xos jihatlari, bu jarayonda eʼtibor qaratish zarur oʻrinlar haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar

internet nashri, matn, reraiting, kopirayting, tahrir, muharrir faoliyati, qayta ishlash tamoyillari.

XXI asr – axborot kommunikatsiyalari asri deya eʼtirof etilmoqda. Bunday sharoitda bilim, axborotga egalik ishlab chiqarish va iqtisodiy aloqalar ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi. Kompyuter madaniyatining kirib kelishi tufayli insonning oʻz ustida ishlashiga, oʻz malakasini oshirishga intilishiga asoslangan fikrlashning, bilim olishning yangi koʻrinishi yuzaga keldi.

Bu jarayonda Internet nashrlari – saytlar, onlayn gazetalar, internet jurnallar, axborot portallari, bloglar (turli maʼlumot va materiallar internet orqali chop etiladigan ommaviy axborot vositalari)ning oʻrni muhim ahamiyatga ega boʻlib bormoqda.

Internet nashrlarining oʻziga xos xususiyatlari shundaki, ular tez yangilanadi, internet orqali oʻqiladi, multimedia (video, audio, rasm) qoʻshish mumkin, keng auditoriyaga tez muddatda yetib boradi.

Oʻz navbatida xuddi shu xususiyatlar bunday nashrlarda tahrir jarayonining tez va sifatli amalga oshirilishini talab etadi.

Internet nashrlarida tahrir turlari odatda quyidagilardan iborat boʻladi:

1. Mazmuniy tahrir (kontent tahriri). Matnning mazmuni, gʻoyasi, mantiqiyliги tekshiriladi. Maʼlumotning toʻgʻriligi va tushunarliги taʼminlanadi.

2. Adabiy tahrir. Matnning uslubi, ifoda vositalari, badiiyligi va ravonliги yaxshilanadi.

3. Til va imlo tahriri. Grammatik, orfografik va punktuatsion xatolar tuzatiladi.

4. Faktologik tahrir. Matnda keltirilgan faktlar, raqamlar, sana va manbalarning haqqoniyligi tekshiriladi.

5. Texnik tahrir. Matnning internet formatiga mosliги, sarlavhalar, giperhavolalar, rasmlar va dizayn bilan bogʻliq jihatlar tekshiriladi.

6. SEO tahrir. Matn qidiruv tizimlarida yaxshi topilishi uchun kalit soʻzlar, sarlavha va tuzilish optimallashtiriladi. SEO (Search Engine Optimization) – qidiruv tizimlari uchun optimallashtirish demakdir. YAʼni matn yoki maqoladagi muayyan soʻz

va jumalarni ichki va tashqi havolalar, teglar, kalit soʻzlar bilan berish orqali, qidiruv jarayonida oʻsha tushunchalarni topishni osonlashtirishdir.

Qisqacha aytganda, internet nashrlarida tahrir asosan mazmun, til, fakt va texnik formatni takomillashtirishga qaratilgan boʻladi. Shuni ham inobatga olish kerakki, tezkorlik, dolzarb mavzular ustida ishlash va axborotni oʻziga xos shaklda oʻquvchiga yetkazish internet nashrlarida ustuvorlik kasb etadi.

Kompyuterda tahrir — bu kontentni nashrga tayyorlashning zamonaviy raqamli jarayoni boʻlib, u matnni tahlil qilish, tahrirlash, tasvirlar bilan ishlash va maxsus dasturlar yordamida sahifalashni oʻz ichiga oladi.

Muharrirlar quyidagi vositalardan foydalanadilar:

- matn muharrirlari (MS Word, Google Docs);
- kontent boshqaruv tizimlari (CMS);
- sahifalash dasturlari.

Kompyuterda matnlarni tahrir qilish, oʻzgartirish, tuzatish, qoʻshimcha kiritish, nusxa olish va qoʻyish kabi ish-amallar tahrir jarayonining asosiy qismini tashkil etadi. Bular quyidagilar:

1. Matn yozish va tahrir qilish. Harflar, raqamlar va maxsus belgilarni kiritish; orfografik xatolarni tuzatish (Backspace, Delete); koʻchirish va oʻchirish (Ctrl + C, Ctrl + X, Ctrl + V)

2. Qisqa yoʻllar (Shortcut Keys). Misol uchun, nusxa olish: Ctrl + C yoki uni kerakli oʻringa qoʻyish: Ctrl + V

3. Navigatsiya (yozuvda harakat qilish).

Oʻng/chap koʻrsatkichlar (→, ←)

Yuqori/quyi qatorlarga koʻchish (↑, ↓)

Bet oxiriga yoki boshiga oʻtish (Home, End, Page Up, Page Down)

4. Maxsus kombinatsiyalar. Print skrin: ekran suratini olish (PrtSc)

Vindows tizimi uchun: Alt + Tab (ilovaning oynasini almashtirish)

Maxsus belgilar kiritish: Alt + raqamli kodlar

Qisqacha aytganda, kompyuterda klaviatura orqali matn kiritish, tahrir qilish, navigatsiya qilish va qisqa yoʻllar orqali tez amallarni bajarish mumkin.

Internet nashrlarini yaratish, tahrirlash va ommaga havola etishla kompyuterdagi eng koʻp ishlatiladigan klaviatura qisqa yoʻllari mavjud. Misol uchun:

Ctrl + C – Tanlangan matn yoki fayldan nusxa olish

Ctrl + X – Tanlangan matn yoki faylni kesib olish

Ctrl + V – Nusxa olingan matn yoki faylni qoʻyish

Ctrl + A – Hamma matn yoki faylni belgilash

Ctrl + F – Matn yoki fayl orasida qidirish

Ctrl + B – Matnni qalin harflar bilan (jirniy qilib) belgilash

Ctrl + I – Matnni kursiv qilib belgilash

Ctrl + K – Giperhavola qo‘shish va hokazo.

Bu amallar internet nashrlariga matn tayyorlashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahrir jarayonida kerak bo‘ladi.

Zamonaviy axborot olamida ma‘lumotlarni qidirish, saralash, jamiyat uchun zarur va qiziqarli bo‘lgan kontentni yaratish asosiy rol o‘ynaydi.

Internet OAV auditoriyasi uchun 7-10 ming belgi hajmidan oshgan materiallar qiziq emas. Shuningdek, an‘anaviy nashrlar va internet nashrlarining auditoriyasi tamoman boshqacha. Tarmoq OAVlari tezkorlik va qayta aloqa sifati jihatidan ustunlikni namoyon qiladi. Internet jurnalistikasi material ichiga izoh qoldirish va muloqot qilish imkoniyatini joylashtirish orqali interaktiv shaklga ega. Auditoriya bilan shunday muloqotni tahlil qilish yangi maqola yoki yangi rubrikaning paydo bo‘lishiga asos bo‘ladi.

E‘tiborli jihati, internet nashrlari faqat axborot berish bilan cheklanmaydi. U faktlarni bayon qilish bilan birga, ularni boyitishi va tahlil qilishi ham mumkin.

Misol uchun, “13-14 mart kunlari o‘zbekistonlik fuqarolarning Qatardan yurtimizga olib kelinishi” mavzusi turli saytlarda turlicha talqin qilingan.

“Dunyo” axborot agentligi (<https://dunyo.info/uz/sootechestvenniki--/iz-katara-na-rodinu-otpravlena-poslednyaya-gruppa-nashih-sootechestvennikov>), kun.uz (<https://kun.uz/kr/news/2026/03/14/qatardan-ozbekistonliklarning-songgi-guruhi-yolga-chiqdi>), qalampir.uz (<https://qalampir.uz/news/k-atardagi-uzbekistonliklarning-sunggi-guru%D2%B3i-ortga-k-aytarildi-133597>) internet nashrlarida bu mavzu turlicha tahrir qilinib e‘lon qilingan.

Tahlillarga ko‘ra, Internet nashrlarida yangilik materiali – matnining taxminan 50 foizi axborot agentliklaridan olingan faktlardan iborat bo‘ladi. Taxminan 5 foizini shu mavzuga oid avval nashr qilingan materiallarga berilgan giperhavolalar tashkil etadi. Qolgan 45 foizini jurnalist o‘z ixtiyoriga ko‘ra quyidagilar bilan to‘ldirishi mumkin:

- mashhur faktlar bilan taqqoslash;
- voqeaning oldingi tarixi haqida ma‘lumot berish;
- voqealar rivojiga ta‘sir qiluvchi ehtimoliy omillarni tushuntirish.

Ayrim hollarda internet nashrlarida yangilik materiallariga muayyan darajada tahlil ham qo‘shish mumkin. Hatto ba‘zan tahlil hajmi faktning o‘ziga berilgan ta‘rifdan ham ortiq bo‘lishi mumkin.

Biroq bu xususiyatlarning salbiy tomonlari ham mavjud. Internet nashrlarining katta qismi bir xil axborot agentliklari lentalaridan foydalanadi. Dolzarb, kun mavzusi bo‘lgan, shu bilan bir qatorda qiziqarlilik va shov-shuvli xabarlar usutnlik kasb etadi. Shuning uchun internetda bir necha daqiqa farq bilan bir xil xabarlarining ko‘plab variantlari paydo bo‘ladi.

Shu tariqa internet gazetalarning yangilik lentalarida chop etiladigan xabarlarining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ularning asosi;
- tezkor tayyorlanishi;
- boshqa manbalardan olingan ma'lumotlarni qayta ishlash.

Internet nashrlarini boyitish, mavzu jihatdan rang-barangligini ta'minlashda bir necha uslub va tamoyillar ko'zga tashlanadi.

Jumladan, rerayting, kopirayting kabi jarayonlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Rerayting – mavjud matni (manbani) qayta ishlab, uning asosiy ma'nosini saqlagan holda boshqa so'zlar bilan yangi, alohida matn hosil qilish jarayonidir. Asosiy maqsad — plagiatsiz, qidiruv tizimlari uchun betakror va o'ziga xos kontent yaratish. Bunda maqolaning mazmuni o'zgarmaydi, faqat shakli o'zgaradi. Umuman, rerayting – faqatgina matni qayta yozish yoki yangi faktlar bilan to'ldirish emas. Bu axborot agentliklaridan olingan ma'lumotni qayta tahlil qilish, uni yangi nuqtai nazardan yoritish yoki voqeaning chuqur ma'nosini ochib berish demakdir.

Reraytning asosiy jihatlari:

unikallik: matn 100% (yoki yuqori foizda) o'zgacha bo'lishi kerak.

ma'no saqlanishi: manbadagi ma'lumotlar, faktlar va asosiy g'oya o'zgarishsiz qoladi.

Bunda sinonimlardan foydalanish, gap qurilishini o'zgartirish, murakkab jummalarni soddalashtirish usullaridan foydalaniladi.

Kopiraytingdan farqi shundaki, yangi g'oya o'ylab topilmaydi, tayyor ma'lumot qayta ishlanadi. Rerayt yangiliklar lentolari, internet-do'konlar uchun tovar tavsiflari va saytlarga kontent tayyorlashda keng qo'llaniladi.

Kopirayting (copywriting) – ma'lum bir maqsadda yoziladigan matn tayyorlash jarayonidir. Odatda bunday matnlar axborot berish, reklama qilish yoki o'quvchini biror harakatga undash uchun yoziladi. Oddiy qilib aytganda, kopirayting – saytlar, reklama yoki ijtimoiy tarmoqlar uchun ta'sirli matn yozish. Reklama matnlari, sayt uchun maqolalar, ijtimoiy tarmoq postlari, mahsulot tavsifi kabilarni yaratishda kopiraytingdan unumli foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Н.Қосимова, Н.Тошпўлатова ва бошқ. Босма ОАВ тахририятлари учун ўқув қўлланма. – Тошкент, 2008.

2. Техническое редактирование и компьютерная верстка. Методические указания к курсовой работе для студентов специальности 1-47 01 01 «Издательское дело». – Минск, 2022.

3. Шиманов, А.Е. Редакторский анализ текста при подготовке его к изданию как междисциплинарный учебный курс в рамках профессионального модуля «Редакторская подготовка изданий» [Текст] / А.Е. Шиманов // Научные исследования

в образовании. Приложение к журналу «Профессиональное образование. Столица» . – 2011. – №3. – С. 57–61.

4. Г.Кирилова. Оптимизация содержания информационно-компьютерной подготовки в средней профессиональной школе. Автореферат. – Казань, 2001.

5. Kun.uz онлайн наشري (сайт). (<https://kun.uz/kr/news/2026/03/14/qatardan-uzbekistonliklarning-songgi-guruhi-yolga-chiqdi>)

6. Dunyo ахборот агентлиги сайти (<https://dunyo.info/uz/sootchestvenniki--/iz-katara-na-rodinu-otpravlena-poslednyaya-gruppa-nashih-sootchestvennikov>)

7. Qalampir.uz веб-сайти (<https://qalampir.uz/news/k-atardagi-uzbekistonliklarning-sunggi-guru%D2%B3i-ortga-k-aytarildi-133597>)